

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SUDYALAR OLIY KENGASHI HUZURIDAGI
SUDYALAR OLIY MAKTABI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.37/27.02.2020.Yu.107.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

BERDAQ NOMIDAGI QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI

ABDREYMOV YUSUPBAY TURDIBAYEVICH

**MOL-MULKDAN TEKIN FOYDALANISH SHARTNOMASINI QO‘LLASHNING
NAZARIY VA AMALIY MUAMMOLARI**

12.00.03 – Fuqarolik huquqi. Tadbirkorlik huquqi. Oila huquqi.
Xalqaro xususiy huquq

yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (Dostor of Philosophy) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Toshkent – 2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi
Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
Content of the abstract of the dissertation of the Doctor of Philosophy (PhD)

Abdreymov Yusupbay Turdibayevich

Mol-mulkdan tekin foydalanish shartnomasini qo‘llashning nazariy
va amaliy muammolari3

Абдреймов Юсупбай Турдыбаевич

Теоретические и практические проблемы применения договора
безвозмездного пользования имуществом.....21

Abdreymov Yusupbay Turdibayevich

Theoretical and practical problems of applying the contract for the gratuitous
use of property.....41

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ
List of published works45

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SUDYALAR OLIY KENGASHI HUZURIDAGI
SUDYALAR OLIY MAKTABI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.37/27.02.2020.Yu.107.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

BERDAQ NOMIDAGI QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI

ABDREYMOV YUSUPBAY TURDIBAYEVICH

**MOL-MULKDAN TEKIN FOYDALANISH SHARTNOMASINI QO‘LLASHNING
NAZARIY VA AMALIY MUAMMOLARI**

12.00.03 – Fuqarolik huquqi. Tadbirkorlik huquqi. Oila huquqi.
Xalqaro xususiy huquq

yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (Dostor of Philosophy) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Toshkent – 2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2019.4.PhD/Yu325 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.sudyalaroliymaktabi.uz) va «ZiyoNet» Axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Okyulov Omonbay
yuridik fanlar doktori, professor

Rasmiy opponentlar::

Imomov Nurillo Fayzullaevich
yuridik fanlar doktori, professor

Paluaniyazov Xalmuxammed Aytjanovich
yuridik fanlar nomzodi, dotsent

Yetakchi tashkilot:

**O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi
Akademiyasi**

Dissertatsiya himoyasi O'zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi huzuridagi Sudyalar oliy maktabi huzuridagi PhD.37/27.02.2020.Yu.107.01 raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil 3-may kuni soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 100097, Toshkent shahar, Chilonzor tumani, Cho'ponota ko'chasi, 6-uy. Tel.: (+998)555010189; faks: (+998)555010189, e-mail: sudyalaroliymaktabi@umail.uz).

Dissertatsiya bilan Sudyalar oliy maktabining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (18-24-raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100097, Toshkent shahar, Chilonzor tumani, Cho'ponota ko'chasi, 6-uy. Tel.: (+998)555010189; faks: (+998)555010189, e-mail: sudyalaroliymaktabi@umail.uz.

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil 17-aprel kuni tarqatildi.

(2024-yil 17-apreldagi 7-raqamli reyestr bayonnomasi).



K.Ö.Sindarov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi,
yuridik fanlar doktori, professor

D.R.Artikov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy
kotiibi, yuridik fanlari bo'yicha falsafa doktori
(PhD), dotsent

B.B.Samarxodjayev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi Ilmiy seminar raisi, yuridik fanlar
doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyoda ijtimoiy hayot va huquqni qo‘llash amaliyotida mol-mulkdan tekin foydalanish shartnomasi bilan bog‘liq huquqiy muammolar o‘rganilmoqda¹. Hukumatlar dunyo bo‘yicha tovarlar, ishlar va xizmatlar yuzasidan tuziladigan davlat kontraktlari uchun yiliga 13 trillion dollar harajat qiladi. Biroq, 3 %dan kamroq qismi ya‘ni 363 milliard AQSh dollaridan kam miqdori oshkor qilinadi². Ushbu shartnomani qo‘llash korrupsiyaga qarshi kurash omili sifatida ochiqlik va shaffoflikni ta‘minlashiga alohida etibor qaratiladi³. Bu esa mol-mulkdan tekin foydalanish shartnomasini qo‘llashning zarurati, nazariy va amaliy muammolari, huquqiy tartibga solishni takomillashtirish dolzarb ahamiyatga egaligini ko‘rsatadi.

Jahonda tekin foydalanish shartnomasi taraflarining huquq va manfaatlarini himoya qilish, boshqa tekin tuziladigan shartnomalardan farqli jihatlari, shartnoma narsasini belgilash va aks ettirish bilan bog‘liq muammolarga alohida e‘tibor qaratilmoqda, ushbu shartnoma taraflariga nisbatan javobgarlik choralarini qo‘llash, huquqiy tartibga solish tizimini takomillashtirishga doir tadqiqotlar olib borilmoqda. Bunda tekin foydalanish shartnomasi qo‘llaniladigan sohalar, virtual olamda yuzaga kelayotgan huquqiy imkoniyatlar, shartnomani real mavjud ashyo yuzasidan tuzish, sun‘iy intellekt yordamida rasmiylashtirish bilan bog‘liq muammolarini tadqiq etish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Respublikamizda so‘nggi yillarda ijtimoiy himoyaga muhtoj aholini har tomonlama qo‘llab-quvvatlash va yordam ko‘rsatishga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Inson qadrini yuksaltirish eng ustuvor maqsad ekanligi normalangan “Yangi O‘zbekistonning 2022–2026 - yillarga mo‘ljallangan Taraqqiyot strategiyasi”da “har bir shaxs erkin fuqarolik jamiyati tomonidan yaratilgan huquq va manfaatlardan tekinga yoki munosib haq evaziga foydalanishi kafolatlangan”.⁴ Shu maqsadda tekin foydalanish shartnomasi mohiyatini aniqlash, turli huquq tizimlarida namoyon bo‘lishi, shartnoma taraflarining huquq va majburiyatlarini belgilash, shartnomaga doir huquqiy normalarni xalqaro standartlarga moslashtirish, shartnoma taraflari huquqlarini himoya qilish, virtual olamda rasmiylashtirish va taraflar javobgarligini belgilash dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi (1995, 1996), O‘zbekiston Respublikasining 2014-yil 2-yanvardagi “Vasiylik va homiylik to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasining 2019 yil 16 oktyabrdagi «Metsenatlik to‘g‘risida» Qonuni, O‘zbekiston Respublikasining 2007 yil 2 maydagi «Homiylik to‘g‘risidagi» Qonuni, O‘zbekiston Respublikasining 1991 yil 15 fevraldagi «O‘zbekiston Respublikasida jamoat birlashmalari to‘g‘risida» Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022 – 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi

¹ Cunningham, L. (2016). Frontmatter. In *Contracts in the Real World: Stories of Popular Contracts and Why They Matter* (pp. I-IV). Cambridge: Cambridge University Press.

² <https://www.open-contracting.org/ru/what-is-open-contracting/global-procurement-spend/>

³ <https://www.open-contracting.org/wp-content/uploads/2022/06/State-of-the-Evidence-Open-Contracting.pdf>

⁴ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “Yangi O‘zbekistonning 2022 – 2026-yillarga mo‘ljallangan taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmoni // Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 21.04.2022-y., 06/22/113/0330-son.

to'g'risida", 2020-yil 22-iyundagi PF-6012-son "Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasining milliy strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi farmonlari, 2021-yil 17-fevraldagi PQ-4996-son "Sun'iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish uchun shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori va mavzuga oid boshqa qonunchilik hujjatlarida belgilangan ustuvor vazifalarning amalga oshirilishida mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi. Mazkur dissertatsiya respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Bugungi kunga qadar tekin foydalanish masalalari qator huquqshunos olimlar tomonidan o'rganilgan. Jumladan, O'zbekiston milliy huquq tizimida ushbu mavzuning huquqiy jihatlari H.R. Rahmonqulov, I.B. Zokirov, O. Okyulov, D.M. Karaxodjayeva, N.F. Imomov, S. Gulyamov, M. Choriyev, V.Yo. Ergashev, S.B. Babakulov, R.D. Ro'ziyev, M.A. Usmanova, M.Y. Usmonova va boshqalar tomonidan tadqiq etilgan⁵. Lekin olib borilgan ilmiy tadqiqot ishlarida mol-mulkdan tekin foydalanish bilan bog'liq muammolar alohida tadqiq etilmaganligi kuzatiladi.

Xorijiy mamlakatlarda Julio de la Morander L., Reinhard Zimmermann tomonidan tekin foydalanishga oid qoidalar o'rganilgan bo'lsa, Jackson H.L., Hahn T.B., Davidning⁶ ilmiy maqolalarida tekin foydalanish shartnomasi qo'llanilishi sohalaridagi ayrim, xususan, taraflarning huquq va majburiyatlarini belgilash hamda rasmiylashtirishga doir masalalar yoritilgan.

MDH davlatlarida S.N.Bratus, M.I.Braginskiy, V.V.Vitryanskiy, O.S.Ioffe, Yu.K.Tolstoy, A.P.Sergeyev, Ye.A.Suxanov, G.Dernburg, G.F.Shershenevich, I.B.Novitskiy, D.I.Meyer, A.Yu.Kabalkin, D.A.Formakidov, P.V.Krashennnikov, V.I.Sinayskiy, D.A.Basaliyev, I.Ye.usizova, A.Ayapbergenova, D.Ye.Potyarkin, A.A.Kosorukov, A.A.Simolinlarning⁷ asarlarida batafsil va keng tushuntirishlar berilgan.

Garchi tadqiqot mavzusi doirasida muayyan ilmiy ishlanmalar mavjud bo'lsa-da, bugungi kunda O'zbekistonning rivojlanish sharoitida fuqarolik qonunchiligi, huquqni qo'llash amaliyoti yuzasidan mol-mulkdan tekin foydalanishni fuqarolik-huquqiy tartibga solish masalalari ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan alohida tadqiqot obyekti sifatida o'rganilmagan.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Qoraqalpoq davlat universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq "Shartnomaviy munosabatlarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarini ishlab chiqish" mavzusidagi ilmiy yo'nalish doirasida bajarilgan.

⁵ Mazkur olimlar asarlarining to'liq ro'yxati dissertatsiyaning foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatida berilgan.

⁶ Mazkur olimlar asarlarining to'liq ro'yxati dissertatsiyaning foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatida berilgan.

⁷ Mazkur olimlar asarlarining to'liq ro'yxati dissertatsiyaning foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatida berilgan.

Tadqiqotning maqsadi mol-mulkdan tekin foydalanish shartnomasini qo'llashni takomillashtirishga oid taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

mol-mulkdan tekin foydalanish shartnomasi tarixini Rim huquqi va boshqa xorijiy mamlakatlar huquqini qiyoslash orqali tahlil etish;

tekin foydalanish shartnomasining vujudga kelishi va mohiyatiga tavsif berish;

tekin foydalanish shartnomasini qo'llashning zaruratini tadqiq etish;

tekin foydalanish shartnomasining shakli, tuzish tartibi va axborot-kommunikatsion texnologiyalarining ta'sirini aniqlash va ilmiy tahlil qilish;

shartnoma narsasini belgilash va shartnomada aks ettirish masalalarini belgilash;

shartnoma bo'yicha taraflarning huquq va majburiyatlariga doir ilmiy yondashuvlarni tahlil qilish;

tekin foydalanish shartnomasining bekor bo'lishi va javobgarlikni qo'llash masalalarini o'rganish;

tekin foydalanish shartnomasining o'ziga xos xususiyati va boshqa tekin tuziladigan shartnomalar bilan o'zaro nisbatini aniqlash;

tekin foydalanish shartnomasini huquqiy tartibga solishni takomillashtirish istiqbollari aniqlash;

tekin foydalanish shartnomasini huquqiy tartibga solishni takomillashtirish istiqbollari takomillashtirishga oid taklif-tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekt sifatida mol-mulkdan tekin foydalanish shartnomasini qo'llashning nazariy va amaliy muammolariga doir munosabatlar olingan.

Tadqiqotning predmetini mol-mulkdan tekin foydalanish shartnomasini qo'llashga doir normativ-huquqiy hujjatlar, huquqni qo'llash amaliyoti, ayrim xorijiy mamlakatlar qonunchiligi, amaliyoti hamda yuridik fanda mavjud bo'lgan konseptual yondashuvlar, ilmiy-nazariy qarashlar va huquqiy kategoriyalar tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot davomida tarixiy, taqqoslash-qiyoslash, analiz va sintez, induksiya va deduksiya, ma'lumotlar tahlili kabi usullar qo'llanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

moddiy madaniy meros obyektini saqlash maqsadida davlat mulki hisoblangan obyektini foydalanishga berish faqat vakolatli davlat organining qaroriga asosan faoliyat yuritayotgan nodavlat notijorat tashkilotlarga, bolalar nodavlat notijorat tashkilotlariga, nogironligi bo'lgan shaxslar nodavlat notijorat tashkilotlariga, diniy tashkilotlarga tekin foydalanishga biriktirish mumkinligi asoslantirilgan;

davlat mulki hisoblangan obyektini tekin foydalanishga biriktirib berish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Prezidenti yoki Vazirlar Mahkamasining qaroriga muvofiq ijaraga beruvchi, balansda saqlovchi va tekin foydalanuvchi o'rtasida tekin foydalanish shartnomasi tuzilishi zarurati asoslab berilgan;

mol-mulkdan tekin foydalanish shartnomasini rasmiylashtirishda davlat bojini kamaytirish huquqi, shuningdek, markaziy saylov komissiyasining a'zolari xizmat ko'rsatish zallaridan tekin foydalanish huquqiga egaligi asoslantirilgan;

davlat mulkini tekin foydalanishga berish shartnomasini tuzuvchi taraf sifatida balansda saqlovchi yuridik shaxs ishtirok etishi va tekin foydalanish shartnomasiga muvofiq amalga oshirilishi asoslantirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

uy-joydan tekin foydalanish (uy-joy ssuda shartnomasi) shartnomasi xususiyatini hisobga olgan holda, ushbu tushunchaning mualliflik ta’rifi ishlab chiqilib, Fuqarolik kodeksida ifodalash zarurati ilgari surilgan;

mol-mulkdan tekin foydalanish va ijara shartnomasini tuzilishi doir yondashuvlarga huquqiy baho berish, sud-huquq tizimini takomillashtirishga oid takliflar ishlab chiqilgan;

tekin foydalanish shartnomasi imkoniyatlari turli sohalarda, xususan, o‘rmon fondi, ko‘chmas mulk, yer, suv resurslari va boshqalarda keng foydalanishning potensial imkoniyatlari mavjudligi asoslab berilgan;

tekin foydalanish shartnomasini boshqa shartnomalar, xususan qarz, hadya, ijara shartnomalaridan farqlash mezonlariga oid takliflar ishlab chiqilgan;

davlat mulki obyektlaridan tekin foydalanish shartnomasini tuzish orqali samarali foydalanishning huquqiy mexanizmlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tegishli metodologiyadan foydalangan holda mol-mulkdan tekin foydalanish shartnomasi qiyosiy tahlili va rivojlangan huquqiy tizimlar tajribasini qo‘llash, shuningdek, sud amaliyotini o‘rganish, tekin foydalanish shartnomasini tartibga soluvchi milliy va xorijiy qonun hujjatlarini tahlil qilish, tadqiqot natijalarini qonunchilikka joriy etish va ularni davlat organlari tomonidan qabul qilinishi orqali tasdiqlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati undagi ilmiy-nazariy xulosalar, taklif va tavsiyalardan kelgusi ilmiy faoliyatda, qonun ijodkorligida, huquqni qo‘llash amaliyotida, fuqarolik qonun hujjatlarining tegishli normalarini sharhlashda, milliy qonunchilikni takomillashtirish hamda fuqarolik huquqi, shartnoma huquqi fanlarini ilmiy-nazariy jihatdan boyitishda xizmat qilishi mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati qonun ijodkorligi faoliyatida, xususan, normativ-huquqiy hujjatlar tayyorlash hamda ularga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish jarayonida, huquqni qo‘llash amaliyotini takomillashtirishda, oliy yuridik ta’lim muassasalarida xususiy huquq sohasidagi fanlarni o‘qitishda xizmat qilishi mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Tadqiqot ishi bo‘yicha olingan ilmiy natijalardan quyidagilarda foydalanilgan:

moddiy madaniy meros obyektini saqlash maqsadida davlat mulki hisoblangan obyektini foydalanishga berish faqat vakolatli davlat organining qaroriga asosan faoliyat yuritayotgan nodavlat notijorat tashkilotlariga, bolalar nodavlat notijorat tashkilotlariga, nogironligi bo‘lgan shaxslar nodavlat notijorat tashkilotlariga, diniy tashkilotlarga tekin foydalanishga birlashtirish mumkinligi haqidagi taklif O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 18-oktyabrdagi “Moddiy madaniy meros obyektlaridan foydalanish tartibi to‘g‘risida”gi nizomni tasdiqlash haqida”gi 881-son qarorining 1-ilovasining 27-bandini ishlab chiqishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Yuridik ta’minlash boshqarmasining 2021-yil 26-apreldagi 12-18-5-son ma’lumotnomasi). Ushbu taklifning joriy etilishi tekin foydalanish shartnomasi tuzilishi orqali yuridik va jismoniy shaxslar huquq va manfaatlarini ta’minlashga xizmat qilgan;

davlat mulki obyektini vakolatli davlat organining qaroriga muvofiq ijaraga beruvchi, balansda saqlovchi va tekin foydalanuvchi o'rtasida tuziladigan tekin foydalanish shartnomasi asosida berilishi haqidagi taklifi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 18-oktyabrdagi "Moddiy madaniy meros obyektlaridan foydalanish tartibi to'g'risida"gi nizomni tasdiqlash haqida"gi 881-son qarori 1-ilovasining 28-bandini ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Yuridik ta'minlash boshqarmasining 2021-yil 26-apreldagi 12-18-5-son ma'lumotnomasi). Ushbu taklifning joriy etilishi tekin foydalanish shartnomasini turli sohalarida tuzilishi imkonini bergan;

mol-mulkdan tekin foydalanish shartnomasini rasmiylashtirishda davlat bojini kamaytirish huquqi, shuningdek, markaziy saylov komissiyasining a'zolari xizmat ko'rsatish zallaridan tekin foydalanish huquqiga egaligi haqidagi taklif O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 6-yanvardagi "Davlat boji to'g'risida"gi O'RQ-600-son, O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 8-fevraldagi "Saylov qonunchiligi takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi O'RQ-670-sonli qonunlarini shakllantirishda inobatga olinib, Davlat boji stavkalari miqdorlari "d" bandi "p" bandiga o'zgartish va qo'shimchalar kiritishda, O'zbekiston Respublikasining Saylov kodeksi 102¹-moddasini ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining Sud-huquq masalalari va korrupsiyaga qarshi kurashish qo'mitasining 2021-yil 20-dekabrda 43-son dalolatnomasi). Ushbu taklifning joriy etilishi fuqarolar uchun davlat boji miqdorini kamaytirishga, saylov komissiyasi a'zolarining tekin foydalanish shartnomasini tuzishini belgilab bergan;

davlat mulkini tekin foydalanishga berish shartnomasini tuzuvchi taraf sifatida balansda saqlovchi yuridik shaxs ishtirok etishi va tekin foydalanish shartnomasiga muvofiq amalga oshirilishi haqidagi taklif O'zbekiston Respublikasining 2023-yil 9-martdagi "Davlat mulkini boshqarish to'g'risida"gi O'RQ-821-sonli Qonuni 29-moddasini ishlab chiqishda inobatga olingan (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Spikeri o'rinbosarining 2023-yil 1-maydagi 02/6-09-18-son dalolatnomasi). Ushbu taklifning joriy etilishi tekin foydalanish shartnomasini davlat mulkidan foydalanishda tuzilishining huquqiy asosini belgilab bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 2 ta respublika miqyosida o'tkazilgan ilmiy-amaliy konferensiya hamda seminarlarda sinovdan o'tgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 13 ta ilmiy ish, jumladan, 9 ta ilmiy maqola (4 tasi xorijiy nashrlarda) chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 122 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning kirish (dissertatsiya annotatsiyasi) qismida tadqiqotchi tomonidan tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo‘nalishlariga muvofiqligi, tadqiq etilayotgan muammoning o‘rganilganlik darajasi, dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog‘liqligi, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obyekti va predmeti, usullari, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijasi, tadqiqot natijalarining ishonchliligi, tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati, ularning joriy qilinganligi, tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi, natijalarning e‘lon qilinganligi, dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi yoritib berilgan.

Dissertatsiyaning *“Mol-mulkdan tekin foydalanish shartnomasining mohiyati” deb nomlangan birinchi bobida* tekin foydalanish shartnomasining vujudga kelishi va mohiyati, qo‘llashning zarurati, turli huquq tizimlarida tekin foydalanish shartnomasining qo‘llanilishi xorijiy va milliy qonunchilik asosida tahlil qilingan.

Dissertatsiyada tarixan Rim huquqidan hozirgi rivojlangan mamlakatlar huquqiy tizimida amal qilayotgan tekin foydalanish shartnomasiga doir huquqiy normalar, uni qo‘llashga doir xususiyatlar tahlil qilingan. Dissertatsiyada tarixan mavjud qoidalar (commodatum, precarium) bo‘lib, mohiyatan qarz, hadya va shu kabi shartnomalardan farq qilinganligi tahlil qilingan; shuning uchun ijtimoiy munosabatlarda kundalik hayotda doimiy qo‘llaniladigan shartnoma sifatida namoyon bo‘lgan.

Dissertatsiyada muallif tarixiy jihatdan kontinental huquqi mamlakatlaridagi tekin foydalanish ham, umumiy huquq mamlakatlaridagi konstruksiyalarda ham, avvalo, manfaatli munosabat sifatida tekin foydalanishni ko‘zlagan degan xulosaga keladi. Asta-sekin bu maqsad qonun bilan belgilab olindi (biroq 1922-yildagi Grajdanlik kodeksida bu borada alohida norma mavjud bo‘lmagan). Hozirgi kunda O‘zbekiston Respublikasida alohida shartnoma sifatida qo‘llanilmoqda. Muallif tomonidan bir qator muhim qoidalar nazariy asoslantirib berildi. Xususan, tekin foydalanish shartnomasini mavjud bo‘lishi uchun, birinchidan, shartnoma narsasi ashyo; ikkinchidan, ashyodan foydalanish uchun topshirish; uchinchidan, ashyoni qaytarish majburiyatining mavjudligi; to‘rtinchidan, asosiy e‘tiborni uning tekin bo‘lishiga qaratish talab qilinadi.

Taraflar o‘rtasida ishonchning mavjud bo‘lishi, shaxslar tomonidan boshqalarga rahmdillikni namoyish etish, qisman shartnomaviy majburiyatga asoslangan, vaqtinchalik muddatga taqdim qilinganligi mohiyatan mavjud hozirgi voqelikka ham mos keladi. Tekin foydalanish shartnomasining qo‘llanilishi doirasi bugungi kunda ham mohiyatan ijtimoiy munosabat sifatida o‘z ta‘sirini saqlab qolgan degan xulosaga kelindi.

Tekin foydalanish shartnomasi ijtimoiy hayotning keng sohalarida, qo‘ni-qo‘shnilar, qarindosh-urug‘lar, tanish-bilishlar o‘rtasida keng va faol qo‘llaniladi. Avvalo, ushbu shartnoma maishiy turmush jarayonida qo‘llanilishini ta‘kidlash o‘rinli bo‘ladi. Bu o‘rinda uy-joydan tekin foydalanish alohida huquqiy rejim bilan belgilanadi. Ijtimoiy hayotda oldi-sotdi shartnomasidan ko‘ra tekin foydalanish shartnomasi ko‘proq qo‘llaniladi. Masalan, har kuni insonlar bir-birlaridan biron

narsani haq evaziga emas, balki tekin foydalanish uchun oladilar (ruchkadan tortib, murakkab ashyolargacha).

Dissertant fikriga ko'ra, tekin foydalanish shartnomasi O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksida mavjud, shuningdek, Fransiyada tekin foydalanish shartnomasi qarz shartnomasi bilan mohiyatan bir qatorda joylashtirilgan. Ular o'rtasidagi asosiy farq shundaki, birinchisida topshirilgan ashyo foydalaniladi, biroq yo'q qilib yuborilmaydi (iste'mol qilib yuborilmaydi) va u foydalanish uchun qarz (*pret a usage*)⁸ yoki boshqacha nom bilan "ssuda" (commodat), ikkinchisida esa foydalanish ashyoni iste'mol qilishni nazarda tutadi. Aynan ushbu ikkinchi turi qarzni (pret) yoki "iste'mol qarzi"ni (*pret de concommation*) anglatadi, deb xulosa qilindi. Germaniyada esa (GFT 609 § 1 va 2-bandlari). Qarz va ssuda shartnomasi o'rtasidagi farq sifatida qarзда foiz yozilishi mumkin bo'lgan holda ssuda shartnomasi faqat tekinga tuzilishi talab qilinadi.

Fransiya Fuqarolik kodeksi modeliga mos ravishda AQSHning Luiziana Fuqarolik kodeksi mavjudligini qayd etish mumkin. Uning alohida bobi qarzga bag'ishlangan bo'lib, ikki qismdan iborat: "foydalanish uchun qarz" (*loan for use*) va "oddiy qarz" (*simple loan*) farqlanadi. "Foydalanish uchun qarz" (*loan for use*) biz ko'rib chiqayotgan ssuda shartnomasini anglatadi. Ushbu shartnomada ashyoni foydalanishga olgan tarafga kontragenti shartnoma majburiyatini bajarmagan hollarda ashyoni ushlab qolish huquqi nazarda tutiladi. Bunday majburiyat sifatida foydalanishga olingan ashyoni saqlash uchun qilingan xarajatlarni qoplash majburiyatini bajarmaslik holatlari ko'rilishi mumkin.

Dissertatsiyaning **"Mol-mulkdan tekin foydalanish shartnomasi shartlarining nazariy va amaliy tavsifi"** nomli ikkinchi bobida tekin foydalanish shartnomasining shakli, tuzish tartibi va axborot-kommunikatsion texnologiyalarining ta'siri, shartnoma narsasini belgilash va shartnomada aks ettirish hamda taraflarning huquq va majburiyatlariga doir ilmiy yondashuvlar tahlil qilingan.

Ushbu dissertatsiyada O'zbekiston Respublikasining "Axborot-kutubxona faoliyati to'g'risida"gi Qonuni tahlil qilinishi natijasida u yoki bu kutubxonadan birgina foydalanish huquqining mavjudligi (masalan, kitobxon bileti) axborot-kutubxona fondlaridan foydalanishga asos bo'lmaydi degan xulosaga kelindi. Dissertant fikricha, davlat budjeti hisobidan moliyalashtiriladigan axborot-kutubxona resurslaridan foydalanishda, axborot-kutubxona muassasalarining axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida axborot-kutubxona fondlarini shakllantirish va axborot-kutubxona xizmati ko'rsatishni tashkil etish bo'yicha faoliyatda tekin foydalanish shartnomasi tuzilishi maqsadga muvofiq.

Shuningdek, tekin foydalanishga doir qonunchilik hujjatlarining ko'pligi yagona konseptual yondashuv mavjud bo'lishini taqozo etadi. Bunda shartnoma tuzishda taraflar manfaatini ta'minlash zaruratidan kelib chiqib, davlat bojini kamaytirish, shuningdek, saylov qonunchiligida markaziy saylov komissiyasining a'zolari xizmat ko'rsatish zallaridan tekin foydalanish huquqiga egaligi belgilanishi shart degan xulosaga kelindi. Shuningdek, ko'chmas mulkka doir qonun osti hujjatlarida ham tizimlilik mavjud bo'lishi lozim. FK, notarial harakatlarni amalga oshirishga doir tartibot tekin foydalanish shartnomasiga doir talablarni belgilasada,

⁸ https://www.legifrance.gouv.fr/loda/article_lc/LEGIARTI000006444650/1978-07-01

ko'chmas mulk obyektlariga bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazish tartibida bunday norma belgilanmagan va huquqiy bo'shliq sifatida qolib ketgan.

O'zbekistondagi mavjud huquqni qo'llash amaliyoti ham yakdil fikrga ega emas degan xulosaga kelindi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2011-yil 1-dekabrda "Mulk ijarasi shartnomasiga oid fuqarolik qonun hujjatlari normalarini iqtisodiy sudlar tomonidan qo'llashning ayrim masalalari to'g'risida"gi 234-sonli qarorida tekin foydalanish masalalariga e'tibor qaratilmagan. Qarorning 9-bandiga ko'ra mulkdan foydalanganlik uchun to'lov miqdori va uni aniqlash shartlari ijara shartnomasida ko'rsatilmagan bo'lsa, bunday shartnoma tuzilmagan hisoblanadi. Shartnoma tuzilmagan deb hisoblanishi va bitimning haqiqiy emasligi sharti sifatida aynan ijara shartnomasi tuzilgan bo'lishi talab qilinadi. Agar shartnomaning nomini ko'rsatmagan bo'lsada, haq to'lash faqat kommunal to'lovlarga taalluqli bo'lsa, uning qanday shartnoma ekanligi va haqiqiyliги borasida yechim mavjud emas.

Dissertatsiyada bir qator olimlar (M.Choriyev, M.Usmonova va boshqalar) fikrlarini o'rgangan holda tekinga tuziladigan shartnomalar borasidagi cheklovlar tizimli bo'lishi nuqtai nazaridan kelib chiqib, muallif FKda hadya va tekin foydalanish shartnomasi borasida cheklov har ikki bobda, ya'ni 31 va 36-bobda ham mavjud bo'lishi maqsadga muvofiq, degan xulosaga keladi.

Ushbu dissertatsiyada berilgan vasiylik va homiylikdagi shaxslar bilan tuziladigan shartnomalarni o'rganib chiqib, qonunchilikda bir qator masalalarda, xususan, mulkni tasarruf etishga doir shartnomalarga doir bo'shliq qolib ketganligini asoslantirib beradi. Bunda muallif vasiylikdagi yoki homiylikdagi shaxs nomidan tekin foydalanish shartnomasi tuzishga yo'l qo'yilmasligi, manfaatdor shaxslar bilan bunday shartnomalar tuzishga doir cheklovlar belgilanishi lozim degan xulosaga keladi va qonunchilikka tegishli takliflarni ilgari suradi.

Shuningdek, muallif ayrim muassasalar operativ boshqaruv huquqi asosida mulkdan foydalanishayotgan bo'lsa, boshqalari xususiy mulk huquqi sifatida foydalanib kelayotganligini tahlil qiladi. Vaholanki, muallif fikricha, operativ boshqaruv huquqi davlat mulki hukmronligi davrida yuzaga kelgan bo'lib, o'z umrini o'tab bo'ldi va bu borada ko'plab ilmiy tadqiqotlar guvohlik bermoqda. Masalan, respublika bo'yicha jami 8 ming 208 ta moddiy madaniy merosning ko'chmas mulk obyektlari mavjud bo'lib, shundan 4 ming 748 tasi arxeologiya yodgorliklari, 2 ming 250 tasi arxitektura yodgorliklari, 678 tasi monumental san'at yodgorliklari, 532 tasi diqqatga sazovor joylardir⁹.

Xorazm viloyatida joylashgan XIX asrga doir Ibrohim Xo'ja uyi davlat mulki bo'lib (164-pozitsiya), Xorazm viloyati madaniy meros boshqarmasi operativ boshqaruv huquqi asosida, TIF Miliy bankdan tekin foydalanish shartnomasi asosida foydalanadi¹⁰. Bundan ko'rinadiki, o'zi cheklangan ashyoviy huquq egasi bo'lgan subyekt, foydalanuvchi bilan tekin foydalanish shartnomasini tuzishi mumkin. Boshqa bir bandeda arxitektura yodgorligi hisoblangan 1906 – 1912-yillarga mansub Ipoteka-bank Toshkent shahar bo'limi binosi (Kaplaning 3 qavatli uy-aptekasi

⁹ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 5-oktabrdagi "Moddiy madaniy merosning ko'chmas mulk obyektlari milliy ro'yxatini tasdiqlash to'g'risida"gi 846-son qarori bilan Moddiy madaniy merosning ko'chmas mulk obyektlari milliy ro'yxati // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 05.10.2019-y., 09/19/846/3881-son.

¹⁰ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 5-oktabrdagi "Moddiy madaniy merosning ko'chmas mulk obyektlari milliy ro'yxatini tasdiqlash to'g'risida"gi 846-son qarori bilan Moddiy madaniy merosning ko'chmas mulk obyektlari milliy ro'yxati. //Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 05.10.2019 y., 09/19/846/3881-son.

(5-pozitsiya)) davlat mulki bo‘lib, Ipoteka-bank Toshkent shahar bo‘limi operativ boshqaruv huquqi asosida birlashtirilgan. Vaholanki, ijara shartnomasi yoki tekin foydalanish shartnomasini tuzishning potensial imkoniyatlari mavjud. Dissertantning fikricha, bu davlat mulkidan foydalanishda investorlar uchun kamroq jozibador qiladigan omillardan biri bo‘lishi mumkin. Tekin foydalanish shartnomasi tuzilishi orqali yuridik va jismoniy shaxslar huquq va manfaatlarini ta‘minlashga xizmat qiladi.

Dissertatsiyaning **“Tekin foydalanish shartnomasini qo‘llashni takomillashtirish” nomli uchinchi bobida** tekin foydalanish shartnomasining bekor bo‘lishi va javobgarlikni qo‘llash masalalari, shartnomaning o‘ziga xos xususiyati va boshqa tekin tuziladigan shartnomalar bilan o‘zaro nisbatini aniqlash muammolari, tekin foydalanish shartnomasini huquqiy tartibga solishni takomillashtirish istiqbollari tahlil qilingan.

Muallif tekin foydalanish shartnomasini qo‘llashni tahlil qilar ekan, FK 618-moddasida nazarda tutilgan bo‘lib, unga ko‘ra tijorat tashkiloti o‘z muassasi, ishtirokchisi (aksiyadori), rahbari, o‘z boshqaruv yoki nazorat organlarining a‘zosi bo‘lgan shaxsga ashyoni tekin foydalanishga berishga haqli emasligi belgilangan bo‘lsada, tekin foydalanish shartnomasi tuzilgan bo‘lsa, u holda ijara haqidagi qoidalar qo‘llanilishiga doir o‘z pozitsiyalarini ilgari suradi. Unga ko‘ra bu o‘rinda taqiqlangan bitim tuzishning oqibati FK 116-moddasiga muvofiq aniqlanadi. Unga ko‘ra qonunchilikning talablariga muvofiq kelmaydigan mazmundagi bitim o‘z-o‘zidan haqiqiy emasdir. Bunday bitimga nisbatan FK 114-moddasining ikkinchi qismida nazarda tutilgan qoidalar qo‘llanilishi shart. Muallif O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksiga “ssuda berishni cheklash” deb nomlanuvchi 618¹-modda kiritish maqsadga muvofiq deb hisoblaydi.

Dissertant tekin foydalanish shartnomasining o‘ziga xos xususiyati va boshqa tekin tuziladigan shartnomalar bilan o‘zaro nisbatiga aniqlik kiritib, hadya, omonat saqlash, qarz, mulk ijarasi shartnomalari bilan o‘zaro farqli jihatlarini ochib beradi. Shu bilan birga tekin foydalanish shartnomasini farqlash uchun asosan “beradi” (real shartnoma uchun) yoki “berish majburiyatini oladi” (konsensual shartnoma uchun) qo‘llaniladi (FK 617-modda), degan xulosaga keladi.

Muallif bir qator olimlar (S.Boboqulov, R.Ro‘ziyev, M.Usmonova va boshqalar) fikrini va ilmiy yondashuvlarini tahlil qilgan holda tekin foydalanish shartnomasida foyda olish maqsadi ko‘zlanmaydi. Bunda mulk egasi ashyoni ijaraga berishni ham, boshqacha tarzda tasarruf etish (masalan, oldi-sotdi shartnomasini tuzish)ni ham ko‘zlamaydi. Eng asosiysi mulkdorga tekin foydalanish shartnomasi obyektini bo‘lgan ashyo vaqtinchalik kerak bo‘lmaydi. Bu esa his-tuyg‘u, erk-iroda asosida anglab yetilishiga e‘tibor qaratadi.

Dissertant uy-joyini tekin foydalanishga berishga doir amaliyotni tahlil qilib, turli darajada e‘lon qilingan statistik ma‘lumotlarda davlat budjetidan milliardlab so‘m mablag‘ kam ta‘minlangan oilalar ehtiyoji uchun, ayollar, ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalar, nogironlar, shu jumladan uy-joyga bo‘lgan ehtiyojni ta‘minlashga qaratilganligi qayd etadi. Lekin Respublika aholisining necha foizi uy-joyga muhtojligi va shundan qanchasi kam ta‘minlanganligi borasida aniqlik yetishmaydi. “Ijtimoiy jihatdan ehtiyojmand”, “kam ta‘minlangan”, “uy-joy sharoitlarini yaxshilashga muhtoj” aholi tushunchalari qonunchilikda tarqoq holda ifodalangan.

XULOSA

Mol-mulkdan tekin foydalanish shartnomasini qullashning nazariy va amaliy muammolari mavzusidagi tadqiqot ishi natijasida quyidagi ilmiy-nazariy hamda amaliy taklif va xulosalar ishlab chiqildi:

I. Ilmiy-nazariy taklif va xulosalar:

1. Tekin foydalanish shartnomasi rim huquqida tekin foydalanishga doir munosabat sifatida commodatum, precarium ma'lum bo'lgan. Tekin foydalanish shartnomasi qadimdan hozirgi kunga qadar dunyo huquqiy tizimlarida mavjud bo'lsada, ushbu shartnomaga nisbatan mualliflik ta'rifi ishlab chiqildi: *“Tekin foydalanish (ssuda) shartnomasi bo'yicha bir taraf (ssuda beruvchi) ikkinchi tarafga (ssuda oluvchiga) mol-mulkdan tekin foydalanishga ruxsat berish majburiyatini oladi. Mazkur shartnoma istalgan shaklda tuzilishi mumkin”*. Legal va ilmiy ta'rif bir-biridan farqlanib, birinchisi uni ikki taraf tuzadigan kelishuv sifatida belgilasa, ilmiy tushunchada uni bir tomonlama erk-irodani ifodalanihi, bir tomonlama bitim ekanligiga urg'u beriladi.

2. Tekin foydalanish shartnomasi va ssuda milliy huquqimizda ayni ma'noni ifodalamaydi. Lex.uz ma'lumotlar bazasidan “ssuda” so'zi 238 ta qonunchilik hujjati ro'yxatida mavjud. Ssuda milliy huquqda mavjud boshqa tushunchalar qarz, bank ssudasi, kredit, byudjet ssudasi va shu kabi ma'nolarda qo'llaniladi. Demak, birinchi navbatda fuqorolik muomalasi va huquqni qo'llash amaliyotida tekin foydalanish shartnomasi qo'llaniladi va uning FKda tekin foydalanish shartnomasi sifatida ifodalanihi to'g'ri va hozirgi kun talablariga mos keladi.

3. Muddatli tekin foydalanish shartnomasi garchi uzoq vaqt davomida odatdagi maishiy hayot jabhalarida qo'llanilgan bo'lsada, ushbu doiradan tobora chiqib ijtimoiy, ommaviy manfaatlarni ham nazarda tutmoqda. Bugungi kunda huquqiy tartibga solish nuqtai nazaridan tor doirada, masalan, kutubxona faoliyatida yoki madaniy meros obyektlaridan foydalanish sohasida ko'rish mumkin. Vaholanki, tekin foydalanish shartnomasi imkoniyatlari nihoyatda keng bo'lib, o'rmon fondi, ko'chmas mulk, yer, suv resurslari va boshqalarda keng foydalanish potensial imkoniyatlari mavjud.

4. Tadqiqot jarayonida tekin foydalanish shartnomasi: shaxsiy va maishiy ehtiyojlarni qondirishga doir munosabatlarda; maishiy sohada; ma'naviy tarbiyaviy, homiylik va boshqa ezgu maqsadlarda; garchi notabiiy tuyulsada, tadbirkorlik faoliyatida foydalanish; turli doirada tashkil etiladigan sanoat, qishloq xo'jaligi ko'rgazmalarida; mehmonxona xizmatlariga qo'shimcha xizmatlar ko'rsatishda (sport inventarlari va boshqalar)da foydalanish zarurati mavjud.

5. Huquqni qo'llash amaliyotida tekin foydalanish shartnomasi ko'zbo'yamachilik yo'lida foydalanilishi ham ehtimoli mavjud. Ayniqsa, u yoki bu mulkdan haq evaziga yoki tekin foydalanishga doir imtiyozli rejimning tatbiq etilishi, turli preferensiyalarning mavjudligi bunga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Natijada asl ko'zlangan maqsadga erishish uchun nomigagina tekin foydalanish shartnomasini tuzishga harakat bo'ladi. Bu o'rinda asosan davlatning fiskal manfaatlari buziladi. Shu boisdan, aynan ushbu sohaga doir bunday normalarni qabul qilishda o'ziga xos ehtiyotkorlik bo'lishi lozim.

Bugungi kunda yetim bolalar va nogironlar huquqlarini himoya qilishga ham alohida e'tibor qaratilmoqda. Xususan, yetim bolalarga 2021-yil 15-avgustdan

boshlab yetim bolalar va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarga kvartiralar ajratilmoqda. Biroq, uy-joy darhol xususiylashtirilsa yoki mulk huquqi boshqacha tarzda o'tkazilsa, u holda davlatning ushbu toifadagi fuqarolarga g'amxo'rlik qilishiga doir funksional vazifalarini bajarish imkonsiz vazifaga aylanib qoladi. Shu bois uy-joy xarid qilinganidan so'ng tekin foydalanish shartnomasini tuzish maqsadga muvofiq.

6. Xorijiy mamlakatlar, xususan, Fransiya, Germaniya, Shvetsariya, Italiya, AQSH fuqarolik qonunchiligida tekin foydalanish shartnomasi har bir davlat huquq tizimi xususiyyatidan kelib chiqqan holda normalangan. Mohiyatan tekin foydalanish shartnomasi iste'mol qilinmaydigan ashyodan foydalanishni o'zida ifodalaydi. Fransiyada qarzning bir turi (*du pret*), AQSHda foydalanish uchun qarz (*loan for use*), Germaniyada ssuda shartnomasi (*unentgeltlich zu gestatten*), Shvetsariyada ashyodan foydalanish (*unentgeltlichem Gebrauche zu überlassen*) namoyon bo'ladi.

7. FK 36-bobi qoidalarida tekin foydalanish shartnomasining shakliga doir alohida qoidalar nazarda tutilmagan. Fuqarolik qonunchiligi uy-joydan tekin foydalanish shartnomasini davlat ro'yxatidan o'tkazish zaruratini belgilamagan. Ssuda huquqi – ko'chmas mulk obyekti uchun jiddiy cheklov hisoblanadi. U haqidagi ma'lumotlar barcha oluvchilar uchun muhim hisoblanadi. Bu borada tegishli davlat ro'yxatining mavjud bo'lmasligi xaridor tomonidan bilmagan holda ssuda oluvchining huquqlari bilan cheklangan ko'chmas mulkni sotib olinishiga olib kelishi mumkin.

8. O'zbekiston Respublikasining "Axborot-kutubxona faoliyati to'g'risida"gi qonunining 17-moddasida moddiy ashyo shaklidagi axborot-kutubxona resurslari qanday olinishi mumkinligi ko'rsatilsada, undan foydalanish qanday huquqiy asosga tayanishi nazarda tutilmagan. Hattoki, kutubxonadan foydalanuvchi qanday asosga ko'ra ushbu huquqni qo'lga kiritishi (haq evaziga yoki tekinga) belgilanmagan. U yoki bu kutubxonadan birgina foydalanish huquqining mavjudligi (masalan, kitobxon bileti) axborot-kutubxona fondlaridan foydalanishga asos bo'lmaydi. Axborot-kutubxona xizmati ko'rsatishni tashkil etishda tekin foydalanish shartnomasi tuzilishi maqsadga muvofiq.

9. Avtotransport vositalari yuzasidan tekin foydalanish shartnomasi tuzish o'ziga xos jihatlarga ega. Avtotransport vositasidan foydalanish uchun mulkdordan ishonchnoma talab qilinar ekan, mazkur ishonchnoma ikki xil vazifani bajaradi. Bir tarafdin taraflar o'rtasida muayyan shartnoma mavjudligini tasdiqlasa, boshqa tarafdin ashyodan (avtotransport vositasidan) foydalanish bo'yicha vakolatni tasdiqlaydi va ushbu vakolatlar jumlasiga avtotransportni boshqarish huquqi ham kirishini ko'rsatadi.

10. Ko'chmas mulkka doir qonun osti hujjatlarida tizimlilik mavjud bo'lishi lozim. FK, notarial harakatlarni amalga oshirishga doir tartibot tekin foydalanish shartnomasiga doir talablarni belgilasada, ko'chmas mulk obyektlariga bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazish tartibida bunday norma belgilanmagan va huquqiy bo'shliq sifatida qolib ketgan.

11. Tekin foydalanish shartnomasining muhim sharti shartnoma narsasi hisoblanadi. Ushbu shartnomani tuzishda taraflar shartnoma narsasini aniq belgilashlari shart. Masalan, tekin foydalanish shartnomasi narsasi sifatida uy-joy belgilanishi, uni identifikatsiya qilish imkoniyati mavjud bo'lishi (qaysi hududda joylashganligi, maydoni, xonadon raqami va h.k.).

12. Tekin foydalanish shartnomasida berilgan umumiy ta'rifdan kelib chiqqan holda uy-joydan tekin foydalanish shartnomasiga nisbatan quyidagi ta'rifni berish mumkin: *Uy-joydan tekin foydalanish (uy-joy ssuda shartnomasi) shartnomasi bo'yicha bir taraf – mulkdor yoki vakolat berilgan shaxs (ssuda beruvchi) – ikkinchi tarafga (ssuda oluvchiga) uy-joyni vaqtincha tekin foydalanish uchun beradi yoki berish majburiyatini oladi, ikkinchi taraf esa bu uy-joyni qanday olgan bo'lsa, normal yeyilishni hisobga olib xuddi shunday holatda yoki shartnomada nazarda tutilgan holatda qaytarib berish majburiyatini oladi.*

13. FKda mavjud operativ boshqaruv huquqi davlat mulki hukmronligi davrida yuzaga kelgan bo'lib o'z umrini o'tab bo'ldi va bu borada ko'plab ilmiy tadqiqotlar guvohlik bermoqda. Uning o'rniga tekin foydalanish shartnomasidan foydalanish har tomonlama o'zini oqlaydi. O'zbekiston Respublikasining "Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to'g'risida"gi qonuniga davlat mulkida turgan moddiy madaniy meros obyektini ijaraga va tekin foydalanishga berishga doir normalar kiritilishi maqsadga muvofiq.

